

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i> FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i> SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i> XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Соѳуб Раѳнов</i> КАМБАФАЛЛИК ВА УНИ ҚИСҚАРТИРИШ МУАММОЛАРИ	33-42
<i>Abdimov minov Oybek Bektemirovich</i> MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i> ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i> SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i> KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромович</i> ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжаниязов Элбек Сардорович</i> ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i> O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Абдурахманов Мухторали</i> ЎУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHIDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPTION MUNOSABATLAR PAYDO BO'lish SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i> O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdulkarimovna</i> BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i> IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i> MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i> СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i> БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO'K” SIFAT BELGISINING SEMANTIKA XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i> HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломовна Марьям</i> ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i> XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI	264-268
<i>Davronov Shexroz Abrorovich</i> OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i> NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i> К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i> O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'liqin qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i> INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i> ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i> XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i> LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i> O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'liqin o'g'li</i> INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Атаназарова Шохида Бахрамовна</i> РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna</i> ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i> SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i> ЛИТЕРАТУРНИЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i> ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoiria Shukurillayevna</i> ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Imomov Nurillo Fayzullayevich

TA'MINLOVCHI TO'LOV – MAJBURIYATLARNI TA'MINLASHNING

YANGI USULI SIFATIDA 407-414

Салаев Нодирбек Сапарбаевич

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ,

ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР 415-431

Ходжиев Юнус Мухитдинович

МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНING ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН

АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ 432-436

Сайдивалиева Хуршида

БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ

МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ

МАСАЛАЛАРИ 437-445

Muqimov Bobur

THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 446-451

Raimova Nargiza Doroyevna, To'uchiyeva Bahora Otabekovna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS 452-459

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ

ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 460-468

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich

UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO'LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING

AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI 469-478

Kubaeva Ismigul Farxod qizi

CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE 479-484

Юсупов Ўктамбой Абсаматович

ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ

КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ИСТИҚБОЛЛАРИ 485-491

Баходирова Сабина Улугбек кизи

РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО

ПОВРЕЖДЕНИЯ 492-503

Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ

ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 504-508

Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o'g'li

O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI 509-520

To'uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna

PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL

NETWORKS 521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшпулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	620-526

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIY Tajribasini qo'llash bo'yicha mavjud ta'lim talablarining tasnifi yuzasidan tahlillar	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i> O'rta asrlar markaziy osiyo mutafakkirlarining cholg'ushunoslikka oid nazariyalari: Abu Nasr forobiyning musiqiy tadqiqotlari	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i> Jahon axborot resurslari orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i> ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i> МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i> ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i> TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i> MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

INFLUENCE OF GLOBAL INFORMATION TRENDS ON NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES

Sayidova Mukhabbat Gaforovna,

Navoi State Mining and Technological University,
senior lecturer

E-mail: jayronmalika@mail.ru

Abstract. The article analyzes the fact that in the conditions of modern globalization, excessive and diverse flow of information, as well as technological changes in society, accordingly, the features characteristic of a nation and people are seriously deformed, threatening national values, as well as methods of combating them is analyzed.

Keywords: national mentality, spiritual values, customs, traditions, globalization, manipulation.

GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI

Sayidova Muhabbat G'afforovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining haddan tashqari ko'p va turli-tumanligi jamiyatdagi texnologik o'zgarishlar bilan birgalikda unga mos ravishda millatga, elatga xos bo'lgan xususiyatlar ham jiddiy deformatsiyaga uchrayotganligi, milliy qadriyatlarga ham xavf solayotganligi va unga qarshi kurash usullari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: milliy mentalitet, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, globallashuv, manipulyatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N21>

Kirish. XXI asr axborot inqilobi sifatida tarix sahnasiga kirib keldi, bu davrning o'ziga xosligi shundaki, inson omiliga bog'liq barcha tushunchalar "mutatsiya"ga uchramoqda. Boshqacha aytganda, jamiyat nafaqat texnologik o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, balki, unga mos ravishda millatga, elatga xos bo'lgan xususiyatlar (milliy mentalitet, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar) ham jiddiy xavf ostonasiga kelib qoldi. Xususan, millat genofondining asosiy komponenti hisoblangan ma'naviy qadriyatlar yemirilib, o'rniga ma'naviy marginallashuv omillari kirib kelmoqda, kosmopolitizm g'oyalari Vatan, sadoqat, vijdon, imon kabi ijtimoiy kategoriyalarga putur yetkazmoqda. Xo'sh! Nima qilish kerak? Qanday yo'l tutish, muammoga adolatli yechim bo'ladi? Bu kabi savollar ustida ko'plab gipotezalar ilgari surilmoqda. Quyida shunday ilmiy tadqiqot xulosalarining ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlarning tahlili va metodologiya. “Globallashuv shiddati va tahdidi bizdan doimo hushyor yashashni, umumbashariy ma’naviyatga faqat umummilliy qarashlar tizimi orqali bog’lanishni talab qilmoqda”- deydi B.J.Rispayev. Tadqiqotchi “bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan tahdidlar garchi arziyas bo’lib tuyulsada, ular globallashuv shiddatidan kuch olib, ko’zga ko’rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo’lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”ligi borasida xulosa beradi. [5;36-b] U so’nggi paytlarda har xil g’arazli kuchlarning “ommaviy madaniyat” niqobi ostida xatarli g’oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlari kuchaymoqda. Bu kabi jirkanch “madaniyat” o’z domiga olgan yoshlarda loqaydlik, yengil-yelpi hayotga qiziqish, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarqlik illatlarini yuzaga keltirishi kuchayib borayotganligini uqtiradi. Ushbu fikrga xamohang fikrni Islom Karimov quyidagicha ifodalaydi: “o’z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormas ekanmiz, turli zararli oqimlarning shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o’z girdobiga tortib, oqibatda, ularning ota-ona, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o’ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas”[3;10-b]. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishlari zarur deydi.

Bizning qarashlarimiz bo’yicha ham axborotlashuv jamiyatdagi barcha “harakatlanuvchi obyektga” o’z ta’sirini o’tkazmay qolmadi. Ayniqsa, inson omili axborot xurujidan ko’proq aziyat chekmoqda. Axborot oqimida kuzatilayotgan transformatsiyalashuv jarayoni bu axborot ta’sirni yanada kuchaytirdi. O.F.Eshdavlatov tadqiqotlari aynan shu masalaga alohida e’tibor qaratiladi. Uning keltirib o’tishicha, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot millatlar, xalqlar va elatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni integratsiyalashuviga xizmat qilishi bilan bir qatorda salbiy tomonlardan ta’siri oshib borayotganligi, mana shunday salbiy jihatlarining hozirgi global axborot kuchidan ruhlanib, ya’ni nisbatan “arzon va samarali” axborot inqilobidan foydalanib, o’z g’arazli maqsadlari yo’lida foydalanmoqda.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotchi axborot xurujidan aholi, ayniqsa yoshlarni asrash mexanizmlarini topishga harakat qilgan holda “global axborotlashuv transformatsiyasida yoshlar dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir etuvchi omillar zararini kamaytirish zaruriyatidan kelib chiqib ta’kidlash o’rinliki, yoshlarimizni ushbu jarayonlar ta’siridan saqlash, ularni milliy ma’naviy merosimiz va qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonida bu tahdidlarga qarshi o’ta ta’sirchan uslub va vositalardan foydalanishni tashkil qilish hozirgi kunimizning o’ta dolzarb, kechiktirib bo’lmas masalalaridan biri bo’lib qolmoqda”[6;326-329b] deb, muammoga quyidagicha yondashuvni ilgari suradi:

birinchidan, ma’naviy tahdidning g’oyaviy-mafkuraviy xuruj va tahdidlariga qarshi kurashda, ular ta’sirini kamaytirish va bartaraf etishda boy ma’naviy merosimiz va qadriyatlarimiz, xalqona go’zal odob-axloqimiz va madaniyatimiz bilan kurashishimiz lozim bo’ladi;

ikkinchidan, informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, ijtimoiy tarmoqlar, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan “qadriyatlar” ko’p hollarda yoshlarni o’z milliy qadriyatlaridan uzoqlashtirib qo’yimoqda, boshqacha qilib aytganda o’ziga xos “ildizi yo’q individ”larning shakllanishiga, o’z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda. Bunday holga qarshi kurashish uchun “hozirgi globallashuv sharoitida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sohasidagi keng ko’lamli transformatsiya jarayonlari mazkur masalalarda ijobiy va salbiy

ta'sirlarni aniqlash va baholash, ijobiy jihatlaridan unumli foydalanish, salbiy ta'sirlariga nisbatan ta'sirchan mexanizm va metodlarni ishlab chiqish"[2;48b] ni taqozo qilmoqda;

uchinchidan, hozirgi global asrda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar insonlarni, ayniqsa yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy ta'sir obyektiga, inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan kurashning eng asosiy nuqtasiga aylantirmoqda. "Turli qarash va manfaatlarga ega subyektlarning yoshlar dunyoqarashini o'z maqsadlariga muvofiq ravishda o'zgartirishga, uni manipulyatsiya qilishga intilishi, ularga turli ijtimoiy normalar va pozitsiyalarni, siyosiy g'oyalarni, ma'naviy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan sa'y-harakatlari tendensiyaviy tus olmoqda"[4;22-b]. Demak, ularga qarshi qanday yo'l tutish to'g'ri bo'ladi? Bu savolga tadqiqotchi: yoshlarning ijtimoiy, siyosiy va demografik kuch ekanligidan kelib chiqib, ularning bilim va dunyoqarashlarini sharqona tarbiya va ma'rifiy yo'l bilan to'g'ri shakllantirish, ta'lim-tarbiya berish, bilim va dunyoqarashini yuksaltirish, yoshlarning ongu tafakkuriga aks ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va samarali choralar ko'rish, yoshlarga sog'lom fikr beradigan manbalarni ko'paytirish zarurligiga urg'u beradi.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib o'tish joizki, darhaqiqat axborot to'lqinining intensiv kechishi natijasida iste'molga kiritilayotgan axborotlarning xolisligi, obyektivligi, real voqelikka mosligi yo'qolib bormoqda. Ya'ni, bugun inson ongiga qaratilgan har qanday urinish – axborot vositasidan tizimli foydalanish mexanizmiga o'tib olmoqda. Bu aslida tabiiy hol, chunki axborot va uni transformatsiya etuvchi "axborot texnologiyalari" nisbatan qulay va arzon vosita ekanligi keng imkoniyatlarni bermoqda. Ammo muammoning dolzarbligi shundaki, ma'lumotlar oqimini nazorat qilib bo'lmasligi oqibatida dezinformatsion axborotlar ko'lamini oshib, kishi ongida "iste'mol qilayotgan" axborotini qaysi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi borasidagi "seleksiya" qilish imkoniyati cheklanib bormoqda. Natijada axborot manбайдan foydalanib, tahdid o'tkazishni maqsad qilgan guruhlar (bu davlat bo'lishi ham mumkin) uchun juda qulay muhit yaratilmoqda.

Umuman uchinchi ming yillikda, axborotlashtirish bilan bog'liq yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlardan himoyalaniш muammosi zamonaviy sharoitda alohida tadqiqot etishni talab etmoqda. Chunki, bugun axborot ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish hamda uni ijtimoiy muomalaga kiritish subyektlar uchun iqtisodiy tejamkorlik keltirayotgan asosiy omil sifatida baholanayotgan bo'lsa, uni realizatsiya qilish, ya'ni axborotni yetkazish auditoriyasining cheksizligi, unga bo'lgan qiziqishni yanada ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli, real ijtimoiy muhitda "axborot cheksizligi" yuzaga keldi. Bundan keyingi shart-sharoitda bir nuqtadan turib, istalgan davlatga keragidan ortiq darajada axborotni manipulyatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu fikr so'nggi tadqiqotlarda quyidagicha izohlanmoqda:

G'arb va Sharq tamaddunida o'ziga xoslik bo'lib, ular o'rtasida qaror topgan qarashlar asosan madaniyat shakllarida farqlanadi. Masalan, E. Ibragimov buni shunday tasniflaydi "G'arb dunyosida ustuvor hisoblanadigan qadriyatlar shaxsiy erkinlik va individual huquqlar, o'zligini namoyon qilish borasidagi erkinlik sifatida qaralsa, Sharq madaniyatida ustuvorlik jamoa manfaatlari, oila sha'ni va muqaddasligi, ijtimoiy an'ana va tartibotlar, kattalarga hurmat kabi qadriyatlar xamo-hang ravishda kechadi, deydi"[2;67-84].

Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, mazkur jarayon inson va jamiyatga nisbatan jamoatchilik fikrini o'zgarishiga olib kelib, sivilizatsiyalararo qarama-qarshiliklarga sabab

bo'lmoqda. Aslida, globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiya tezlashib, eng avvalo, ma'naviy-axloqiy mezonlar qaror topishi, umuminsoniy qadriyatlar sayqallashib, yangicha qarashlar shakllanishi kerak edi. Ammo tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan dunyoda, biz hozirga qadar erishgan marralarimiz – axborotlashgan jamiyat "ma'lumotlar omborida" sezilmasdan qolib ketdi. Chunki, shiddatli va ayni paytda o'ta murakkablik bilan qo'nim topayotgan "ommaviy axborotlashuv" yoxud "global axborotlashuv" alohida davr sifatida ko'rilmogda. Bunday nomlanishining boisi shuki, yer yuzining qaysi chekkasida yuz bergan har qanday voqelik – axborot makonidan kuch olib, bir necha soniya ichida butun dunyo ahliga ma'lum bo'lmoqda. Bu esa shubhasiz matbuot va ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli nechog'li oshib borayotganidan dalolat beradi. Ikkinchi jihatdan, har qanday axborot yuz berayotgan voqea-hodisalarga bog'liq bo'lmagan jihatlarni ham transformatsiya qilish imkoniyatlari cheksizlanib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Yana bir masala, axborotlashuv jarayonida kechayotgan intensivlik jamiyatlararo integratsiyalashuvni tezlatib, ijtimoiy muomalada bo'lgan barcha sohalarni va shu bilan birga inson tafakkurida kechayotgan tabiiy o'zgarishlarni ham qamrab olmoqda. Ushbu fikrni tadqiqotchi F.X.Yuldasheva tomonidan o'rta tashlangan "global ong" tushunchasiga bog'lash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Chunki, inson omiliga bog'liq ravishda real dunyoda sodir bo'ladigan har qanday o'zgarish, bu avvalo "ong" fenomeni bilan bog'liqdir. Shu jihatdan qaraganda yangi dunyo tartibotida kechayotgan voqeliklar markazida global ongni qo'yish mumkin. Qolaversa, ong – dominant ahamiyat kasb etib, barcha zamonlarda yuzaga kelgan antropogen ta'sirlarning markazida turadi.

S. Ibragimovning keltirib o'tishicha, bir qarashda hurfikrlilik, erkin tanlov tarafdoridek tuyulgan "ommaviy madaniyat" eskalatsiyasi, aslida insonning fikrlashiga, tafakkur qilishiga zid ularoq harakat qilishga ixtisoslashgan "kompaniya" ekanligi ma'lum. Uning xavflilik jihatlari quyidagi ijtimoiy elementlar bilan chambar-chas bog'liqdir:

- fikrsizlik oqibatida tobe bo'lish-kuch bilan bo'ysundirilgandan ko'ra ming chandon fojiali. Demak, ular asosan ong orqali tafakkurga ta'sir etishga urg'u berishadi;

- bu illat faqat chetdan, ya'ni G'arb madaniyati orqali kirib kelayotgan ijtimoiy illat emasligi borasida Sh.Mirziyoyev "yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatgan har qanday sog'lom fikrlovchi odam", "ommaviy madaniyat" avvalo ichki muhitda yuzaga kelgan moyillikdan foydalanishini anglash mumkin;

- bugun dunyo mafkuraviy poligonga aylanayotgan, g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar asosiy vosita sifatida qaralayotgan makonda, undan keyin janglar ochiq maydonda emas, aksincha siyosiy maydonda, axloq, tafakkur va ma'naviyat saviyasida kechishi ko'rinib qolmoqda. Zero bundan keyingi "raqiblar shunchaki bir siyosiy partiya bo'lmasdan, o'zga e'tiqod, g'oya va mafkuralarga, aniq maqsadga ega bo'lgan kuchlardan iborat bo'ladi. Bunda ta'lim va tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi kuchga aylanadi"[1;397-403-b] deydi tadqiqotchi.

Xulosa. Zamonaviy makonda, axborot xuruji oshib boraverar ekan, bu birinchidan uning ommaviyligini ko'rsatsa, ikkinchidan imkoniyatlari kengayib borayotganligini anglatadi. "Ommaviy madaniyat" eskalatsiyasining ushbu jihatlarini inobatga olgan holda quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, axborot makonida mega imkoniyatlar oshib, har qanday mafkurani jamiyatning barcha qatlamiga singdirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ayniqsa, o'rgimchak to'ri kabi internet tarmog'ining yuzaga kelishi, milliy ma'naviy qadriyatlarga qarshi xuruj ko'lamini yanada oshirdi. Aniqroq aytganda, keng qamrovli (masalan 10-20 millionlik auditoriya)ni qamrab olish uchun radioga 38 yil kerak bo'ldi, bu ko'rsatkich televideniye kashf etilgandan so'ng 13 yilga tushdi. Shuningdek, kabelli televideniya paydo bo'lgach masofa yanada 10 yilga qisqardi, ammo internet yuqoridagi barcha ko'rsatkichlarni 5 yilda bosib o'tdi desak, bu ham haqiqatdir. Demak, internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda birlamchi tizim bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, har qanday axborot ta'sir doirasiga ko'ra o'zgaruvchan bo'lib, oddiyligidan murakkablik sari yo'naltiriladi. Shu jihatdan u (axborot) uchta imkoniyatga ega, bular: cheksizlik qamrovini o'zida mujassam etib, doimiy faol bo'lishi; barcha toifadagi insonlarga mos ravishda manfaatli ekanligi; tashkillashtirishda iqtisodiy tejamkorligi, boshqarilish prinsipida inson omiliga ehtiyojining kamligi hamda nazorat shakliga ko'ra xilma-xilligi.

Uchinchidan, har bir millatning mavjudligi, bu uning milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarida aks etadi. Shunday ekan, ularni asrash tashabbusi avvalo davlat darajasida ko'rilmog'i zarur. Bu borada O'zbekiston tajribasida uchta muhim tashabbus mavjud: 1) urf-odat va qadriyatlar shakllanishini milliy mentalitetga bog'lagan holda targ'ib etish; 2) milliy qadriyatlar tasnifida diniy yoki dunyoviy guruhlarni yuzaga keltirmaslik; 3) milliy qadriyatlarni saqlash borasida olib boriladigan islohotchilikda ta'lim va tarbiyaga asosiy urg'uni berish.

To'rtinchidan, internet (ijtimoiy tarmoqlar, video chat kanallar), televideniye (kino, musiqa, reklama) orqali kirib kelayotgan axborotlarni seleksiya qilish imkoniyatining cheklanganligi, rasmiy filterlash xizmatining xavfsiz emasligi ortidan turli guruhlar tomonidan g'arazli maqsad yo'lidagi deformatsiyaga uchragan zararli axborotlarning tarqalishi, keng qamrovli ma'naviy marginallashuvga olib kelmoqda, bu hol ayniqsa yoshlar o'rtasida yanada xavotirli kechmoqda.

Beshinchidan, "ommaviy madaniyat"da uch element yaqqol ko'zga tashlanadi. Bular: Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, kompyuter o'yinlariga odatlanib qolgan yoshlar; Individuastik g'oyalarga moyilligi bor shaxsda shakllanuvchi illatlar, ya'ni "o'zim bo'lsam bo'ldi, o'zga bilan nima ishim bor" kabi aqidaga suyanuvchi qatlam hamda egosentrizm prinsipida ish ko'ruvchi insonlar jamoasini ko'rsatish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ибрагимов С. Глобаллашув жараёнида "Оммавий маданият" нинг ёшлар тарбиясига таъдиди // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. –Т. 2. –№.11. –Б. 397-403.
2. Ибрагимов Э. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири. Фалс.фан.фалс.докт (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Самарқанд., 2020.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б.10
4. Ламажаа Чимиза Кудер-ооловна Социальная трансформация // Знание. Понимание. Умение. 2011. –№1. –С.22
5. Риспаев Б.Ж. Глобаллашув шароитида ахборот таъдиди //Academic research in educational sciences. 2024. –Т. 5. –№. 2. –С. 1010-1012.
6. Эшдавлатов О. Ижтимоий муносабатлар трансформацияси: ёшлар дунёқараши ва қадриятлар тизими таъсирлар // Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. 2024. – Т. 2. –№. 1. – С. 326-329.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).